

XORAZM VILOYATI AHOLISINING KUNDALIK HAYOTI MAVZUSINING MANBASHUNOSLIGI.

Quranboyeva Sevinchoy Maqsud qizi ¹

¹ Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.12.2024

Revised: 14.12.2024

Accepted: 15.12.2024

Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi aholining kundalik hayoti tadqiq qilinib, ilmiy tadqiqotlar qilgan tarixshunoslarning asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek ularning asarlaridagi g'oya va takliflarning dolzarbligi ham yoritib beriladi.

KALIT SO'ZLAR:

Kundalik hayot,
ijtimoiy hayot, maishiy
xizmat, uy-joy qurilishi,
ichimlik suvi, tibbiy
xizmat..

KIRISH. Tarix fanidagi yangi yo'nalishlardan biri bu "Kundalik hayot tarixi" yo'nalishi bo'lib uning predmeti inson kundalik hayotini turli tarixiy-madaniy, siyosiy, etnik va konfessional kontekstda o'rganishdir. Xozirgi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar globallashuv jarayonlari jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Bunday holatda insonning kundalik hayoti yildan yilga o'zgarib boradi va u faqat shahar xududlarida yuz bermay balki qishloq joylarida ham kuzatiladi. Shahar va qishloq hududlariga kirib kelayotgan har bir yangi texnologiya yoki yangi xizmatlar aholining kundalik hayotiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Bu yo'nalishlarni o'rganishda ijtimoiy fanlarning yangi tarmog'i hisoblangan kundalik hayot tarixi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish insonning har kunlik tarixini ko'rsatib beradi va tarixiy jarayonlarga xolis ko'z bilan qarash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Kundalik hayot tarixi yangi yo'nalishlardan biri bo'lishiga qaramay, bugungi kunda dunyoning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishda ko'pgina ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Fransiya, Aqsh, Germaniyadagi gumanitar institutlari, Rossiya Fanlar akademiyasining tarix institutidagi markazlarida aholi

barcha qatlamining va har bir kasb egalarining kundalik hayoti tarixi o'rganilmoqda. Bu tadqiqotlarda asosan aholining hayotiga yangi texnologiyalarni kirib kelishi, tibbiyot va madaniyat muassasalarining aholi hayotda tutgan o'rnini, aholining turmush tarzi kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Bu mavzuga oid tadqiqotlarni, adabiyotlarni o'rganishda ularni uch guruhga ajratish mumkin : 1) sovet davri nashrlari; 2) mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar; 3) xorijiy nashrlar.

Metod. Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning bir qancha uslublari, jumladan qiyosiy tahlil, ma'lumotlarning tahlili, sintez, ma'lumotlarning xolisligi, realligi kabi prinsiplardan foydalanildi.

Muhokama. Birinchi guruhga oid adabiyotlarni sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar tashkil qilib ularning ko'pchiligida qishloq va shahar aholisining hayotiga kommunistik partiyaning ta'siri tavsiflab o'tilgan. Bu tadqiqotlarda shahar va qishloq aholisining iqtisodiy, moddiy faravonligi, uy-joylar qurilishi va bu jarayonlarning aholi kundalik va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'siri va aholi hayotida tutgan o'rnini hamda kundalik hayotning ayrim ijtimoiy masalalari berib o'tilgan. Bu davrdagi aholi hayotidagi bo'lgan o'zgarishlar, yangiliklar haqida arxiv materiallari va nashr qilinmagan manbalar O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA), Xorazm viloyati Davlat Arxivi (XDA) (1), Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi arxivi, Xonqa tuman Davlat Arxivi (2), Gurlan Tuman Davlat Arxivi (3), Bog'ot tuman Davlat Arxivi (4) va boshqa turli idora va tashkilotlarning arxivlarida saqlanayotgan materiallar kiradi.

Ikkinchi guruhdagi adabiyotlarga mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar kiradi. Mavzuga oid ko'pgina ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan; ohirgi yillarda kundalik hayot masalalarini tadqiq etish tarixi, tadqiqot usullari va metodologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar qilingan. R.Shamsutdinov, A.Mavrulov, O.Begmatovlarning tadqiqotlarida shahar va qishloq hududlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy jarayonlar yoritib o'tilgan. D. Bobojonovanning tadqiqoti 1970-1980-yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasiga oid bo'lib unda o'zbek xalqining kundalik hayotiga oid ayrim jihatlar ham ochib berilgan. O.Komilov tadqiqotida shahar va qishloqlardagi ichimlik suvi muammolari yoritib berilgan.(5) Yana Qo'chqorboy Xaitovning "Xorazmgaz el xizmatida" (6) nomli kitobida Xorazm viloyatini gazlashtirilishiga oid ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Yusupov I. ning "O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyot tarixi " (7) nomli dissertatsiyasida ham Xorazmda radio va televideniyaning rivojlanishi haqida ko'pgina ma'lumotlar olishimiz mumkin. Jumanazarov R, Sobirov A "Tuyamo'yin va tuyamo'yinliklar" asarida ham Xorazm vohasidagi suv inshotlarining qurilishi, ularda aholining ishtiroki haqida

ma'lumotlar olishimiz mumkin. S.B.Shodmonov, M.M.Yo'ldoshevning "Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari" asari ham bu ilmiy mavzuni o'rganishda katta ahamiyatga egadir. S. Rajabovning ilmiy tadqiqot ishida ham Xorazm viloyatidagi maishiy xizmat ko'rsatish tizimlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uchinchi guruhga mansub xorijiy tadqiqotlarda kundalik hayot tarixi yo'nalishi 1980-yillardan boshlab rivojlana boshlagan. Tarix ilmining mazkur sohasi rivojlanishida V. Ulrix(8) va A. Lyudke(9) muharrirligi ostida nashr etilgan kitoblar muhim o'rin tutadi. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda aholi barcha qatlamlarining kundalik hayoti tarixi yoritib berilgan. Sovet ittifoqi aholisining kundalik hayot tarixiga doir qator ilmiy ishlar ham nashr qilingan bo'lib ular sirasiga S. Kotkin va SH. Fitspatrik kabi tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin, ulardan tadqiqotda metodologik nuqtai nazardan foydalanish mumkin.

Natijalar. Kundalik hayot yo'nalishida insonlarning shaxsiy va uy hayoti hamda turmush tarzi, insonlarning jamiyatdagi voqelikka moslashuvi yo'llari, voqea va hodisalarning emotsional tomoni, kishilar va insonlarning odatdagi turmush tarzi bilan bog'liq kechinmalari kabi masalalarga alohida e'tibor beriladi. Sovet hokimiyati yillarida Xorazm viloyatida yashaydigan aholining kundalik turmush tarzida va ijtimoiy hayotida yildan yilga o'zgarishlar, yangiliklar bo'lavergan. Qaysidir bir sohasini olsak ham rivojlanish kuzatilgan. Bu davrda aholi hayotidagi har bir yangilik "Xorazm haqiqati", "Sovet O'zbekistoni" gazetalarining har bir sahifalarida to'liq yoritilgan. Bundan tashqari R. Shamsutdinovning o'quv qo'llanmasida 1960-1980-yillarda O'zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti masalalari, o'zbek qishloq shaharlaridagi uy-joylar ahvoli, aholining tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash, aholining moddiy ahvoli, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat darajasi, ekologik ahvol kabi masalalar respublika misolida umumiy tarzda yoritilgan va ijtimoiy tanglikning kuchayib borish sabablari ochib berilgan. D.Bobojonovanning tadqiqoti 1970-1980-yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasiga oid bo'lib unda o'zbek xalqining jumladan Xorazm viloyati aholisining kundalik hayotiga oid ayrim jihatlar ham ochib berilgan. O.Komilov tadqiqotida o'zbek shahar va qishloqlaridagi ichimlik suvi, ekologik muammolar yoritilib berilgan. Xorazm viloyati aholisining kundalik hayotiga gazning kirib kelishi ularning turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Zangori olov har bir xonodoni isitar ekan aholi bundan juda xursand bo'lishgan. Qo'chqorboy Xaitovning "Xorazmgaz el xizmatda" asarida Xorazmga qachon qay tarzda gaz kirib kelgani, uning aholi hayotiga ijobiy ta'sirlari haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. Xorazm aholisi kundalik hayotiga gaz 1963-yilda kirib kelgan, shundan keyin aholi xonodonlari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari bosqichma-bosqich gazlashtirilib

boshlangan. Jumanazarov R, Sobirov A “Tuyamo’yin va tuyamo’yinliklar” asarida ham Xorazm vohasidagi suv inshootlarining qurilishi, ularda aholining ishtiroki haqida ma’lumotlar olishimiz mumkin. Tuyamo’yin gidrouzelining qurilishini aholining kundalik, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qilgan ijobiy ta’sirlari haqida ma’lumotlar berilgan. Tuyamo’yin gidrouzelining qurilishi davrida bir qancha shaharlar bundyod etildi va aholining bir qismi bu yerga ko’chirildi. I.Yusupovning tadqiqot ishida nafaqat O’zbekistondagi balkim Xorazm viloyatidagi aloqa vositalari radio, televideniyaning paydo bo’lishi, uning aholi kundalik hayotiga ta’siri haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Xorazm viloyatidagi aholi ilk marotaba 1961-yilda televizor orqali ilk ko’rsatuvlarni tomosha qilgan. Viloyat aholisi kundalik hayotidagi har bir yangiliklar aholining yaxshi yashashi uchun xizmat qilgan.

Xulosa. Kundalik hayot tarixi insoniyatning o’zgaruvchan va murakkab evolyutsiyasini aks ettiradi. Har bir davrda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va texnologik omillar odamlarning turmush tarzini shakllantirgan. Xorazm viloyati aholisining kundalik hayoti tarixiy jarayonlar, an’anaviy qadriyatlar va iqtisodiy faoliyatlar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xorazm viloyati Davlat Arxivi. Fond-251-255. Opis . 1. yed. xr 9-1333.
2. Xonqa tuman Davlat Arxivi. Fond - 5. opis.34. yed.xr.2334.
3. Yangibozor tumani Davlat Arxivi fondi. - 230. Opis.155. yed. xr. 1034.
4. Bog’ot tumani Davlat Arxivi fondi.- 410. Opis. 203. yed. xr. 2004
5. Komilov O. K. O’zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari (1951-1990y) Tar.fan.dok....diss.- Toshkent, 2017.- 265 b.
6. Qo’chqorboy Xaitov. Xorazmgaz el xizmatida. “Xorazm” taxririya-nashr bo’limi. 1993-yil, 8-b
7. Yusupov I. O’zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyot tarixi.-Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022-y.
8. Ullrich V. Spuren im Alltag. “Barfusshistoriker” -woher sie kommen und was sie wollen//Die Zeit.1981. 2. Nov. : Ullrich V. Entdeckungsreise in den historischen Alltag // Geschichte in Wissenschaft und Unterricht. 1985. H 36.- S.403-414.
9. Ludtke A. The history of everyday life; Reconstructing historical ways of life.- USA; Princeton University PressCalifornia Press,1995.-336 p.